

**O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BEZNIS VA  
XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMNING YARATILISHI  
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

*Esanova Nilufar*

*University of Economics and Pedagogy, Karshi*

*E-mail: esanovanolufar@gmail.com*

**Annotatsiya:** Qashqadaryo viloyati sanoatini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati katta. Viloyatda sanoat sohasini rag'batlantirish uchun kichik va o'rta korxonalarini tashkil etish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaratildi. Mazkur mexanizmlar doirasida tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari, kreditlash imkoniyatlari va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar joriy etildi. Bu esa, o'z navbatida, viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rnlari yaratish va mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Qashqadaryo sanoati, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, rivojlantirish mexanizmlari, iqtisodiy diversifikatsiya, soliq imtiyozlari, kreditlash, infratuzilma.

**Аннотация:** Малый бизнес и частное предпринимательство имеют большое значение в развитии промышленности Кашкадаргинской области. В целях стимулирования промышленного сектора в регионе созданы механизмы создания и поддержки малого и среднего предпринимательства. В рамках этих механизмов были введены меры, направленные на улучшение инфраструктуры, налоговые льготы и возможности кредитования субъектов предпринимательства. Это, в свою очередь, служит диверсификации экономики региона, созданию новых рабочих мест и расширению производства местной продукции.

**Ключевые слова:** Кашкадаргинская промышленность, малый бизнес, частное предпринимательство, механизмы развития, диверсификация экономики, налоговые льготы, кредитование, инфраструктура.

**Abstract:** Small business and private entrepreneurship are of great importance in the development of industry in the Kashkadarya region. In order to stimulate the industrial sector, mechanisms for the creation and support of small and medium-sized businesses have been created in the region. Within the framework of these mechanisms, measures were introduced aimed at improving infrastructure, tax incentives and lending opportunities for business entities. This, in turn, serves to diversify the region's economy, create new jobs and expand the production of local products.

**Key words:** Kashkadarya industry, small business, private entrepreneurship,

development mechanisms, economic diversification, tax incentives, lending, infrastructure.

**1. Kirish (Introduction):** So'nggi yillarda O'zbekistonda yengil sanoat sohalarining rivojlanishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentining kengayishi uchun qo'llanilayotgan chora-tadbirlar rivojlanmoqda. To'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida rivojlanishni ta'minlash uchun investitsiya qo'yish, texnologik rivojlanish va xorijiy bozorlarga mahsulot eksportini oshirish yo'naliшlarida keng qo'shimcha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

**2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review):**

Mavzuni yoritishda F.Oripov, G.A. Xaratov, T.S.Melnikova, M.Karanov, Sh.N. Ulmasboyev, T.A. Shister, K.L.Zadixina, L.V.Gentshke, A.T.Dexkanov, R.X.Zuxurov va X.A.Amanovlarning ishlari tahlil qilingan.

**3. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):** Tadqiqotni yoritishda xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, tizimlilik tamoyili asosida ish ko'rilib, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**4. Tahlil va natijalar (Analysis and results):**

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga 2013 yilda 373 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2014 yilda 499,7 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134 foizni tashkil etdi.

Ushbu kreditlarning 166,3 mlrd.so'mi kichik korxonalar va mikrofirmalarga, 253,1 mlrd.so'mi xususiy tadbirkorlarga, 80,3 mlrd.so'mni dehqon va fermer xo'jaliklariga berildi.

Viloyatda bank cassalariga naqd pul tushumini ko'paytirish maqsadida sanoat tovarlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarining firma do'konlarini ochish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2010 yil 19 apreldagi PQ-1325-sonli[1], 2009 yil 6 apreldagi PQ-1090-sonli[2] va 2006 yil 3 avgustdagagi PQ-433-sonli[3] hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi 445-sonli[4] Qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyat bo'yicha emissiya qilingan plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida 2014 yilda 1176336 dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilgan bo'lib, yil boshiga nisbatan 180087 donaga yoki 118,0 foizga oshdi.

Davlat daromadlariga 2214,4 mlrd.so'm mablag' jalb qilish rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 2203,4 mlrd.so'mni tashkil etdi yoki ko'rsatkich 100,5 foizga bajarildi hamda soliq va majburiy to'lovlar 26702,7 mln.so'mga ko'p jalb qilindi. Bu ko'rsatkich viloyatning shaxar va tumanlarida to'liq bajarildi.

2014 yilda viloyat mahalliy byudjet harajatlari 1538,3 mlrd.so'mga rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 1542,7 mlrd.so'mga yoki 100,3 foizga ijo

etildi.

2014 yilda ijtimoiy-madaniy tadbirlarga 1184,1 mlrd.so'm, ijtimoiy himoyaga 147,1 mlrd.so'm, kapital qo'yilmalar harajatlariga 43,2 mlrd.so'm va boshqa harajatlarga 168,3 mlrd.so'm mablag' yo'naltirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyatga keng tadbiq etilishi, tekshirish ishlarining qisqarganligi, biznes yuritish uchun moliya va vaqt harajatlarining kamayganligi, ro'yxatga olishning xabardor qilish tizimining joriy etilishi natijasida ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari soni jadal oshib, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarida ham ijobjiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

2013 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha viloyatda 1652 ta kichik biznes korxonalari tashkil etilib, ularning soni 20430 taga yetdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni molivaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyatdagi tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga 2013 yil davomida 372,9 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,3 mlrd. so'mga ko'p yoki 130,1 foizni tashkil etdi.

Ajratilgan kreditlarning 17,4 foizi sanoatga, 24,9 foizi qishloq xo'jaligiga, 14,9 foizi qurilishga, 15,9 foizi maishiy xizmat ko'rsatishga va 26,9 foizi boshqa sohalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Natijada qo'shimcha ravishda 19 mingdan ortiq ish o'rnlari tashkil etildi.

Kichik biznes sub'ektlarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 25,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 51,4 foiz darajasiga yetdi. Shuningdek, ularning iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlaridagi ulushi oshib bormoqda.

2014 yil 6 oyda viloyatida 20366 dan ziyod kichik biznes va xususiy tadibirkorlik korxonalari ro'yxatdan o'tib, (fermer xo'jaliklarisiz) hozirgi kunda ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning 15157 tasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotimizning hal qiluvchi tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi viloyatda izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida bu sohaning ulushi 52,4 foizni tashkil etadi, ish bilan band aholining 77 foizdan ziyodi ushbu sektorda mehnat qiladi, aholi daromadlarining yarmidan ko'pi mazkur tarmoq hisobidan shakllanayapti[5].

Ana shunday muhim natijalarni e'tirof etgan holda, bu sohada ayrim muammolar bor. Masalan, viloyatda ro'yxatga olingan 47 ming 400 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektidan 3 ming 450 ga yaqini amalda faoliyat ko'rsatmayapti.

Kichik biznes sub'ektlari o'z ishini tashkil etishi uchun ularga binolar, yer uchastkalari ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish masalalarida turli-to'siqlar uchrab turibdi.

Turli nazorat idoralari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari ko'zga tashlanmoqda. 2013 yilning birinchi yarmida nazorat

organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati yuzasidan 14 ta noqonuniy tekshirish o'tkazilgan. Shuningdek, bir qator tumanlardagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari faoliyatida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini buzish holatlari qayd etilgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 2 million 830 ming aholi yashamoqda. Ularning 17,5 foizini maktab yoshidagi bolalar, 27 foizdan ortig'ini yoshlari, qariyb 50 foizini esa ayollar tashkil etadi. Keyingi 10 yilda viloyat aholisininr soni 1,2 barobar o'sdi.

Hayot o'zgarishlari bilan birga insonlarning talab va ehtiyojlari, orzu-niyatlari, kerak bo'lsa, tashvish-muammolari ham o'sib boradi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, viloyatda aholining real daromadlari 2000 yilga nisbatan jon boshiga 9,7 barobar ko'paygan, shu davrda o'rtacha oylik ish haqi 23 marta, pensiya va ijtimoiy nafaqalar 12,7 marta ortgan.

Oxirgi o'n ikki yilda viloyatda 320 ta umumta'lim maktabi, 89 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji, 132 ta sog'liqni saqlash muassasasi, 98 ta bolalar sporti ob'ekti foydalanishga topshirilgan.

Bu nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini, balki odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga munosabatini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda, ularning ertangi kunga ishonchini kuchaytirmoqda.

Ayni paytda viloyatda ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish uchun byudjetdan ajratilgan mablag'larni o'zlashtirishda ba'zan oqsoqlik holatlariga yo'l qo'yilayapti. Masalan, 2013 yili 2 ta kasb-hunar kolleji, 11 ta maktab belgilangan muddatda foydalanishga topshirilmagan.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurish dasturi doirasida Qashqadaryo viloyatida keyingi to'rt yilda 2 ming 510 ta yangi, shinam uy-joy va infratuzilma ob'ektlari barpo etildi.

«Obod turmush yili» deb nom olgan 2013 yilda esa yana 1 ming 50 ta uy-joy, 32 kilometr ichimlik suvi, 28 kilometrdan ziyod elektr tarmoqlari, 40 kilometrdan ortiq tabiiy gaz tarmoqlari va 24 kilometrdan ziyod yo'l qurish bo'yicha keng ko'lamli ishlari olib borildi. Lekin, afsus bilan aytish kerakki, ayrim tumanlarda pudrat tashkilotlarini safarbar etish, tegishli moddiy-texnik resurslar bilan uzlusiz ta'minlash, muhandislik kommunikatsiyalarini oldindan barpo etish ishlari talab darajasida tashkil etilmagan.

Sanoat sohasining yangi turlarini rivojlantirish maqsadida kelgusi to'rt yilda umumiy qiymati – 2 milliard 98 million dollarga teng bo'lgan 555 ta loyihani amalga oshirish, eng muhimmi, 13 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilyapti.

Ushbu loyihalarini amalga oshirish natijasida viloyatda sanoat mahsulotlari hajmi 1,2 barobar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,6 barobar, qurilish materiallari 1,8 marta, mashinasozlik va kimyo sanoati 2,9 karra, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 1,7 barobar ortishi rejalashtirilgan.

Dasturda, jumladan, viloyatdagi yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali eksportbop zamonaviy tayyor gazlama va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha umumiy qiymati 100 million dollardan iborat bo‘lgan 82 ta loyihani amalga oshirish belgilangan. Bu esa 2016 yilga borib, viloyatda yetishtiriladigan paxta tolasini qayta ishlash hajmini hozirgi 6 foizdan 35 foizga yetkazish va eng muhimi, 4 mingta yangi ish o‘rnini yaratish imkonini beradi.

### 5. Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):

Qashqadaryo viloyati sanoatini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yaratilishi viloyat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmlar orqali sanoat sektorida yangi imkoniyatlar va ish o‘rnlari yaratilib, viloyatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rag‘batlantirish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish orqali Qashqadaryo sanoati raqobatbardoshlikni oshirish va ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlashda muvaffaqiyatga erishdi. Shuningdek, bu jarayon viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga ham katta hissa qo‘shdi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 16-son, 124-modda;
2. Mamatqulov, B. S. (2024). O ‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA OQIBATLAR (XX-ASRNING 30-40 y.). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 33-39.
3. MAMATQULOV, B. (2024). O ‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *Acta NUUz*, 1(1.2. 1).
4. Sherzovich, M. B. (2024). INDUSTRIAL MEASURES IN UZBEKISTAN 1925-1954 AND THEIR RESULTS (in the case of Kashkadarya and Surkhandarya regions). *World scientific research journal*, 24(1), 195-200.
5. Sherzovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
6. Asanova, P. (2024). O ‘zbekiston va Hindiston o ‘rtasida savdo va ilmiy-texnik hamkorlik. *Общество и инновации*, 5(5), 227-231.
7. Asanova, P. B. (2021). ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ИНДИИ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 18, 43-47.
8. Boymanovna, A. R. (2024). HISTORICAL BASIS OF COOPERATION BETWEEN THE STATES OF UZBEKISTAN AND INDIA. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 2(3), 62-67.
9. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO ‘ZGUSIDA: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va*

- rivojlanish omillari, 6(2), 86-94.
10. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.
11. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.
12. Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O ‘RNI. *Modern education and development*, 16(5), 216-226.
13. Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК-ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.
14. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA’NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
15. Kuziyevich, E. U. (2024). GUZOR FORT IN THE PERIOD OF BUKHARA EMIRATE. *European Science Methodical Journal*, 2(5), 192-198.
16. Kuziyevich, E. U. (2023). SETTLEMENTS ASSOCIATED WITH THE “BATOSH” SEED IN THE GUZOR STATION OF THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE LATE 19TH-EARLY 20TH CENTURIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(7), 116-119.
17. Ergashev, U. K. (2024). SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN GUZOR PROVINCE. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(5), 157-162.
18. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.
19. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
20. Nilufar, E. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA YIRIK SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Modern education and development*, 16(5), 250-259.
21. Ruzimuratovna, O. N. (2022). WAYS TO ABSORB THE NATIONAL IDEA IN THE YOUTH MIND. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 122-124.
22. Ochilova, N. R. (2023). The importance of moral education of young people in the development of new Uzbekistan. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 25-28.
23. Ochilova, N. R. (2022). CURRENT STATUS OF UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(12), 255-258.
24. Sharopova, N. (2023). QASHQADARYO VILOYATI UMUMTA'LIM MUASSASALARI MODDIY-TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH TADBIRLARI VA ULARNING NATIJASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy*

- axborotnomasi, (9), 518-522.
25. Akbarovna, S. N. (2024). THE NEW LAW" ON EDUCATION" IN NEW UZBEKISTAN AND ITS CONTENT. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(6), 35-36.
26. Sharopova, N. A., & Quvonova, R. (2024). Important Aspects of Personal Development In High Schools. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(9), 83-92.
27. Buriyevna, M. S., & Sherozovich, M. B. THE FACTOR OF ISLAM RELIGION FOR ENSURING PEACE AMONG CONFESSIONS (USING THE EXAMPLE UZBEKISTAN EXPERIENCE).
28. Burievna, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
29. Murtazova, S. B. (2022). The Queens Are in the Hearts Forever!. *Miasto Przyszłości*, 23, 11-16.
30. Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 64-69.
31. Жумаева, И. С. (2023). Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий ҳимоя. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5 SPECIAL), 286-290..
32. Suyunovna, J. S. (2024). SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEKİSTONDA MILLIY MAKTABLAR VA ULARNING FAOLIYATI. *Modern education and development*, 16(5), 239-249.
33. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.
34. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peirian Journal*, 25, 11-16.
35. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.